O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI

Muminova Madinaxon Doniyor qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi 70411302 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA) General mutaxassisligi bo'yicha Magistratura talabasi
Toshkentdagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti, yetakchi mutaxassis
https://doi.org/10.5281/zenodo.18632172

Annotatsiya. *Mazkur dissertatsiyada O'zbekistonda kichik va o'rta biznes (KO'B) ning rivojlanishida davlatning roli haqida o'rganildi. Shu bilan birga KO'B faoliyatlarining rivojlanish yo'lida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati, hozirda mavjud kamchilik va muammolar ham tahlil qilindi. Davlat o'rnatgan siyosatning samaradorligi, KO'B faoliyatini kengaytirish uchun tashqi investitsiyalarning kiritilishi xalqaro tajriba bo'lib undan O'zbekiston uchun investitsion muhit yaratishda keng qo'llanish imkoniyati va kamchiliklari, KO'B uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalar haqida izlanishlar olib borildi. Maqola tadbirkorlar uchun foydali bo'lib, ilmiy jihatdan xulosalar va takliflar berilgan.*
Kalit so'zlar: *kichik va o'rta biznes (KO'B), davlat siyosati, investitsiya, texnologiya, samaradorlik.*
Annotation. *This dissertation studies the role of the state in the development of small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. Simultaneously, the significance of foreign investment in the development of SMEs, the current limitations and problems were investigated. The usefulness of the policy established by the state, in addition, global experience in the activities of foreign investment SMEs, the possibility of its widespread application in creating an investment environment for Uzbekistan, and the shortcomings of modern technologies necessary for SMEs were studied. The article is useful for entrepreneurs, and scientific conclusions and suggestions are given.*
Key words: *small and medium enterprises (SMEs), public policy, investment, technology, efficiency.*
Аннотация. *В данной диссертации исследуется роль государства в развитии малого и среднего предпринимательства (МСП) в Узбекистане. Одновременно анализируется значение иностранных инвестиций в развитие деятельности МСП, существующие недостатки и проблемы. Кроме того, рассматривается эффективность проводимой государством политики, а также международный опыт в сфере привлечения иностранных инвестиций МСП, возможность её широкого применения в создании инвестиционного климата для Узбекистана и недостатки современных технологий, необходимых для МСП. Статья полезна для предпринимателей, содержат научные выводы и рекомендации.*
Ключевые слова: *малое и среднее предпринимательство (МСП), государственная политика, инвестиции, технологии, эффективность.*

I. Kirish

1.1 Tadqiqot muammosi va tadqiqot maqsadi

Hozirgi davrga kelib nafaqat O'zbekiston Respublikasida balki ko'plab davlatlarda ayniqsa global iqtisodiyot rivojlanish davrida kichik va o'rta biznes (KO'B)ning ahamiyati katta. Hozirgi

global davrda KO'B aholi uchun yangi va ko'p tarmoqli bo'sh ish o'rinlari yaratilishida, aholining daromad ko'rsatkichlari ijobiy o'zgarishida hamda iqtisodiyotga sezilarli darajada foyda keltirishida muhim sanalmoqda. Shulardan misol qiladigan bo'lsak, keng imkoniyatlar, imtiyozlar, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan davlat dasturlari. Lekin yetarli imkoniyatlar va qulayliklar yaratilishiga qaramay, samaradorlik KO'Bga qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida ilmiy tahlillar yetarli emas. Shu masalaning o'zi ham mavzuning qanchalik dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda KO'B rivojida davlat siyosatining rolini tahlillar orqali o'rganish va uning samaradorligini baholash bilan birga KO'Bning yanada rivoji uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1.2 Tadqiqot ahamiyati, zamini va asoslari

So'nggi yillarda KO'B taraqqiyoti muhim rol o'ynamoqda. Bunga sabab hozirgi kunga kelib KO'B davlatning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda va shu bilan birga raqobat ham rivojlanmoqda, bu esa raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlanishiga katta yordam beradi. Shu sababli davlatimiz rahbari ham KO'B rivojlanishiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. (Umurzakov va bshq, 2014)

Tadqiqot zamini misolida hozirgi kunda KO'B rivoji uchun olib borilayotgan keng ko'lamdagi davlat siyosati, moliyaviy barqarorlik va turli xil islohotlarni ko'rish mumkin. Shu bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar, sohaga oid turli siyosiy manbalar va xorij tajribasidan ham kerakli ma'lumotlardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodchilar, olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. KO'B rivojlanishida davlat siyosatining o'rni haqida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar fiklari ko'rib chiqilgan.

II. Adabiyotlar sharhi

2.1 Mavzuga oid mavjud bilimlarni baholash

Kichik va o'rta biznes jahon iqtisodiyotida aholi uchun bo'sh ish o'rinlari yaratilishida ishtirok etuvchi keng miqyosdagi loyihalar sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular yirik korxonalarga qaraganda faolroq hisoblanadi. Sababi yirik korxonalarda katta hajmdagi texnologiyalar jadal rivojlangan bo'lsa, KO'Blar bu holatga kamroq tayanadi, ularda ishchi kuchiga bo'lgan talab faolroq.(Buckley, 1998)


Rossiyalik olimlar ham KO'B rivojlanish funksiyalariga alohida ahamiyat berishgan. Tadqiqotchilarning yozishicha Rossiyalik olimlarning fikriga ko'ra rivojlangan davlatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning 70% ni KO'Blar tashkil etadi. Bu kabi ijobiy biznes ko'rsatkichlar mamlakatdagi aholi bandligi va daromadlarini ko'payishiga katta turtki bo'libgina qolmay, aholi farovonligini sezilarli darajada oshishida zarurligini aytib o'tgan. (Toxirov, 2024)

Usmanova, (2024) o'z tadqiqotida O'zbekiston hududida KO'Bning ko'payishi o'rta mulkdor sinfning paydo bo'lishiga sabab bo'lganini ta'kidlagan. Albatta bu bizneslarni kengayishiga olib keldi. KO'B qisqa muddatda davlat iqtisodi uchun kerakli natijalarni ta'minlab berishi bilan alohida ahamiyatga egaligini tasdiqlab o'tgan.

Darnai, (2024) tadqiqotida ikkilamchi natijalar KO'B raqobatbardoshligini kuchaytirishda va mamlakat hududlari, iqtisodiyotini ta'minlashda ahamiyatli deyilgan. Chunki bandlik

yaxshilanadi va aholi farovonligi oshadi. Tadqiqotda yozilishicha Vengriyada faoliyat yuritayotgan korxonalarning 99 foizdan ko'prog'i KO'Blardan iborat.

Bhatti va bshq., (2014) muallifligida yozilgan tadqiqotda ko'plab mualliflar tomonidan korxonaning samaradorlik o'lchov ko'rsatkichlarini turli xil toifalari ko'rsatilgan. Ya'ni bu ko'rsatkichlarning 2 ta asosiy guruhi mavjud bo'lib birinchisi, moliyalashtirishga asoslangan ko'rsatkich bo'lsa, ikkinchisi esa moliyaviy ko'rsatkichga asoslanmagan samaradorlik deb ta'riflangan. Tadqiqotchilarning yozishicha White (1996) ning fikriga ko'ra moliyaviy ko'rsatkichlar ya'ni - yetkazib berish ishonchliligi, sifat, vaqt bo'lsa, shu korxona yoki firma faoliyatining ko'p holatlarda qabul qilingan ko'rsatkichlari hisoblanadi degan. Tadqiqotda boshqa mualliflar ya'ni Sinclair va Zairi (1995) ikkinchi tomondan mijozning qoniqish hosil qilishi, moliyaviy, ijtimoiy va mahsuldorlik ko'rsatkichlari, atrof-muhit va xavfsizlikni ko'pgina korxonalar tomonidan qo'llanib kelinayotgan samaradorlik ko'rsatkichi sifatida topdilar.(Bhatti va bshq, 2014)



I-rasm. *ASEAN mamlakatlarida bo'lajak kichik va o'rta korxonalar uchun tavsiya etilgan muvaffaqiyatning asosiy omillari*

Manbaa: (Sudibyo va bshq, 2023)

Keltirilgan vizual model ko'rinishi yordamida Association of Southeast Asian Nations (ASEAN) mamlakatlaridagi kichik va o'rta biznes uchun tavsiya etilgan muvaffaqiyatning asosiy omillari ko'rib chiqildi. ASEAN bu 10 ta janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini birlashtirib turuvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar KO'Blarning muvaffaqiyatga erishishida asosiy omillar sifatida tan olingan. Shundan raqamli iqtisodiyot alohida KO'Blarning rivojida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi kunda internet foydalanuvchilari soni keskin ko'payib bormoqda, bu esa tez vaqt mobaynida katta miqdordagi auditoriya yig'ish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga elektron tijorat bilan nafaqat savdo hajmini oshirish mumkin, balki bozor ulushi ham kenagayadi. Ijtimoiy tarmoqlar ham bunga misol bo'la oladi. Davlat siyosatining o'rni va yordamini tadbirkorlar va KO'B subyektlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar misolida ko'rish mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining rivoji uchun davlat KO'Bga yordam berishi zarur, chunki KO'Blar

davlat rivojlanishida faol ishtirokchilar hisoblanadi. Bunga sabab shuki, ular katta korxona va firmalarga qaraganda ichki imkoniyatlari biroz kamroq. (Sudibyo va bshq., 2023)

So'nggi yillarda internet-texnologiyalari yordamida ko'pgina zarur amaliyotlar tez va sifatli tarzda amalga oshirilmoqda. Birgina ulardan oqilona foydalanish ko'p xarajat talab qiladigan ehtiyojlarni yo'q qiladi. Misol uchun mijozlar xizmatini boshqarish, loyihalarni boshqarish, buxgalteriya dasturlari, korxonaga oid muhim ilovalarni taqdim etish korxona faoliyatini yanada soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. (Axmadjonov, 2024)

Bugungi kunda raqamli transformatsiyada samaradorlikka erishish uchun korxonalar o'zining raqamli imkoniyatlarini rivojlantirishi zarur. Ammo resurs cheklanganligi sababli, eng ustuvoriga ahamiyat qaratishi kerak. (Chun va bshq, 2021) tadqiqotida yozilishicha, (Kwon va Park, 2017) inson omili bu o'zgarishga ta'siri borligi haqida to'xtalgan. Shu sababli ularga uzluksiz yangi bilimlarni o'rgatib, to'g'ri tuzilgan jamoa shakllantirish kerakligi haqida to'xtalgan.

KO'Blarning rivojlanishida horijiy investitsiyalar ham alohida o'rin egallaydi, zero bu investitsiyalar kelajakdagi tajriba va eksport salohiyatini ham rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda ham "Yangi O'zbekiston qurish yo'lida g'oyat muhim va hal qiluvchi bosqichga qadam qo'yyapmiz, sizlarning fidoyi mehnatingiz, innovatsion fikringiz, yondashuvingiz har qachongidan ham muhimroq va bu borada barcha soha vakillariga o'rnak bo'lishingizga ishonaman", deb ta'kidladi. (Mirziyoyev, 2026)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yildagi tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan V ochiq muloqotida kichik va o'rta biznes uchun tijorat banklari tomonidan 250 trillion so'm, dastur doirasida 30 trillion so'm ajratilishini ta'kidlab o'tdi. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan kamida 5 mingta tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun – 4 trillion so'mlik moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirilishi joriy qilindi.(Mirziyoyev, 2026)

Turli xil KO'Blarning aholi daromadlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan shuni bilish mumkinki, bu tijorat turi faqatgina davlatning iqtisodiy o'sishi va rivojiga emas balki, mamlakat aholisining farovonligi uchun ham alohida ahamiyatga ega.(Qurbonboyev, 2025)

Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish ilgari surilib kelinayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, investitsion muhitda soliq tizimi ham alohida o'rin tutadi.(Miraxmatov, 2025)


KO'B muvaffaqiyati bugungi kunda davlatning eng zarur vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Chunki mamlakatning gullab yashnashi va tarraqqiy etishida ularning o'rni muhim sanaladi. KO'B rivojlansa davlat hududlarida ham rivojlanish ko'rsatkichlari oshadi shu sababli bu davlat miqyosidagi vazifa sifatida qaralmoqda deydi (Mamadaliyev, 2024) o'z tadqiqotida.

Hozirgi kunga kelib KO'B butun dunyo miqyosida davlat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida alohida ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga qaraganda rivojlangan mamlakatlardan Yaponiya, Italiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya kabi davlatlarda yalpi ichki mahsulot (YaIM) KO'Bning 50-60% ni tashkil qilmoqda. O'zbekistonda bu ko'rstakich 53.9 % ni tashkil etmoqda. (Toxirov, 2024)

Iqtisod fanlari doktori, professor (Shadieva, 2025) ning tadqiqtida yozilishicha Muxamedov (2022) ning "O'zbekistonda kichik biznesda raqamlashtirish va yangi texnologiyalar" asari kichik biznesda raqamli texnologiyalar o'rni va avtomatlashtirilgan xizmatlar ulardan, elektron xisobotlar

kichik biznes samaradorligi yo'lida xarajatlarni kamaytirishi va qulayligini hamda uning samaradorligini o'rganadi.

Jahon banki 2023 yilda "Biznes yuritish" bo'yicha reytingini ma'lum qildi. Bu reytingda O'zbekiston 2022-yilga nisbatan 4,46 ballga ko'tarilganligi haqida ma'lum qilindi va O'zbekiston mamlakatlar orasida 74-o'rinni egalladi. Bundan tashqari yangi tashkil etilgan biznesni ro'yxatga olish bo'yicha esa 73-o'ringa chiqishga muvaffaq bo'ldi. Jahon banki bergan taqdimotda keltirilishicha O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarni namoyon etib, dunyodagi eng yetakchi 10 ta davlatlar qatoridan joy olgan. (Aminboyev, 2025)



***II-rasm**. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (2024)*

Manbaa: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi saytidan olingan rasmiy statistik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlik darajasi davlatning ko'pgina qismini qamrab olgan. Bu esa albatta O'zbekiston mehnat bozorida iqtisodiy faol rivojlanishdan darak beradi.(O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024)

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari bir qancha omillarga bog'liq. O'zbekistonda KO'Blarni rivojlantirishda davlatning o'rni muhim. Davlat siyosati KO'B uchun qanchalik to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa, KO'Blar samaradorligi ham shunchalik davomiy bo'ladi. 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad xalq farovonligi, kichik va o'rta biznes subyektlarini yanada rivojlantirish, inson manfaatlarini ko'zlagan holda eng ustuvor yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.(Hamraev va Yuldasheva, 2023)

KO'Blar yangi ish o'rinlari ko'payishiga sabab bo'ladi va bu albatta sog'lom raqobatni rivojlantiradi. Hozirgi kunga kelib KO'Blar davlat yalpi ichki mahsulotining chorak qismidan ko'prog'ini tashkil etadi. Undan tashqari KO'Blar talabning o'zgarishiga moslashuvchan va kichik

qismlarda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishi ham osonroq. Iste'mol talablari o'zgargan holatda ham qiyinchiliklarsiz o'zgarishlarga moslashib ketadi. Kichik partiyalarda bo'lsa ham yangi mahsulot turini ishlab chiqaradi.

2.2 Farazlar

Tadqiqot quyida berilgan farazlarni ilgari suradi. Ya'ni:

1 O'zbekistonda KO'Bning rivojiga qaratilgan islohotlar, ulardan davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy ko'mak va soliq imtiyozlari ko'pgina KO'B uchun keng imkoniyatlar yaratilishiga sabab bo'lmoqda.

2 KO'Blar faoliyatida yosh kadrlarga ko'rsatilayotgan qulayliklar, treninglar, mahorat darslari kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishiga va KO'B rivojiga yo'l ochadi.

3 KO'Bning samaradorligida davlat siyosati va investitsion faollik muhim ko'rsatkich hisoblanadi

4 KO'B rivojida oilaviy biznes va ayollar bandligi ta'minlanadi va davlatning iqtisodiy samaradorligi oshadi.

5 Hozirgi kunga kelib KO'B va davlat iqtisodiyotining rivoj topishida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati katta. Chunki ko'pgina sohalarda raqamli iqtisodiyot yo'lga qo'yilayotgani, ham davlat iqtisodiyoti uchun, ham aholi farovonligi uchun birdek xizmat qilishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa albatta kelajakda davlat rivoji yo'lida ma'lumotlarni shaffoflik, tezlik va aniqlik bilan olish imkoniyatini oshiradi. Chunki texnologiya va iqtisod birlashgan joyda taraqqiyot boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Aminboyev, J. (2025) *Kichik biznesni samarali rivojlantirishda moliyalashtirishning asosiy yo’nalishlari*. O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi.

Axmadjonov, D. (2024) «Internet texnologiyalarining kichik biznes sub’yektlariga ta’siri», *Qo‘qon universiteti* [Preprint]. Доступно на: https://doi.org/10.54613.

Buckley, P.J. (1998) «International Technology Transfer by Small and Medium-Sized Enterprises», в Buckley, P. J., *International Strategic Management and Government Policy*. London: Palgrave Macmillan UK, сс. 78–95. Доступно на: https://doi.org/10.1007/978-1-349-26646-3_5.

Chun, L.C. *и др.* (2021) «Role of Government to Enhance Digital Transformation in Small Service Business», *Sustainability*, 13(3). Доступно на: https://www.mdpi.com/2071-1050/13/3/1028.

Darnai, B. (2024) *Model-based analysis of the organisational characteristics of start-ups froman organisational life cycle perspective*. University of Debrecen. Доступно на: https://dea.lib.unideb.hu/server/api/core/bitstreams/700c7223-7d83-4107-ad03-f46dc600a759/content (Просмотрено: 25 январь 2026 г.).

Hamraev, O. и Yuldasheva, N. (2023) «О мерах по поддержке малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан», *«Science and Education» Scientific Journal*, 4(3). Доступно на: https://cyberleninka.ru/article/n/o-merah-po-podderzhke-malogo-i-srednego-biznesa-v-respublike-uzbekistan-v-2022-2026-godah/viewer.

Ishaq Bhatti, M., Awan, H.M. и Z. Razaq (2014) «The key performance indicators (KPIs) and their impact on overall organizational performance», *Quality & Quantity*, 48(6), сс. 3127–3143. Доступно на: https://doi.org/10.1007/s11135-013-9945-y.

Mamadaliyev, D. (2024) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llash usullari», *Kokand University Herald*, 13(24). Доступно на: https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1034.

Miraxmatov (2025) «Soliq imtiyozlari va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish», *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur vainnovatsion g‘oyalar*, 1(8). Доступно на: https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/3331/2859 (Просмотрено: 25 январь 2026 г.).

Mirziyoyev, S.M. (2026) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*, *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*. Доступно на: https://president.uz/oz/lists/view/8394 (Просмотрено: 21 январь 2026 г.).

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2024) *Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi*, *Statistika integrallashgan axborot tizimi*. Toshkent,O’zbekiston: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Доступно на: https://siat.stat.uz/reports-filed/274/map-data.

Qurbonboyev, A. (2025) «Aholining daromadini oshirishda kichik biznesning ahamiyatini statistik o'rganish», в. *International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, Madrid,Ispaniya. Доступно на: https://orcid.org/0009-0008-7660-4456.

Shadieva, R. (2025) «Развитие малого бизнеса в Узбекистане: стратегии поддержки и перспективы роста | экономическое развитие и анализ», *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(1), cc. 493–500.

Sudibyo, N.A. *и др.* (2023) «The Rise of ASEAN SMEs: How to Successfully Enter the Global Market». Business, Economics and Management. Доступно на: https://doi.org/10.20944/preprints202307.1505.v1.

Toxirov, R. (2024a) «Mamlakatimizda hududiy miqyosda kichik biznesga sarmoya kiritish bo'yicha tadqiqotlar», *University Research Base*, cc. 314–318.

Toxirov, R. (2024b) «Xorijiy tajriba asosida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish», *Ta'limda Yangicha Yondashuv – Innovatsiya Sari Qo'yilgan Qadam Konferensiyasi* [Preprint]. Доступно на: https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/522.

Umurzakov, U.P. и Toshboyev, A.J. (2014) *Kichik biznes va tadbirkorlik*. Toshkent: Sano-standart nashriyoti.

Usmanova, G. (2024) «O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi», *Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби илмий журнали*, 4(1), cc. 101–106.